



TARAQQIYOT TA'LIM –TARBIYADAN BOSHLANADI

Xolmatova Zamiraxon Gayratbekovna

Andijon viloyati, Jalakuduk tumani

Davlat ixtisoslashtirilgan umum ta'lim maktabning boshlang'ich sinfi
oliy toifali o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7766756>

ARTICLE INFO

Received: 16th March 2023

Accepted: 23th March 2023

Online: 24th March 2023

KEY WORDS

Pedagogik mahorat, iste'dot, pedagogik ta'sir ko'rsatish; ma'naviy – axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich; ta'limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta'limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy ijtimoiy psixologik tizim; o'z-o'zini tarbiyalash; ixtiyoriylik; o'z-o'zini anglash; inson kamoloti; tarbiyalash metodlari; ko'p qirrali jarayon; ob'ektiv omillar; sub'ektiv omillar; tarbiyaning uzluksizligi.

ABSTRACT

Pedagogik muloqot va uning ahamiyati. Muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelaётgan ijtimoiy ehtiёlar bilan birgalikda namoён bo'ladi, «Shaxslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y fikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi.

«Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir», Shavkat Mirziyoev.

“Pedagogik mahorat” tushunchasi o'tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli negizida tinglovchilarni pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi.

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali



tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi.

Iste'dot-bu qobiliyatlar yig'indisidan, ularni majmuasidan iboratdir. Alohida olingan, yakka qobiliyatni garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham, iste'dot bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Pedagogik qobiliyat-qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyati bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogi qobiliyatning tuzilishi qanday? quyida bu masalani ko'rib chiqamiz.

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

O'qituvchining muhim kasbiy fazilatlari sifatida o'qituvchilik kasbiga sadoqat; o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi; pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi; pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi, layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O'qituvchi, avvalo, har doim ijodkor insondir. U o'z o'quvchisining kundalik hayoti tashkilotchisi. Shaxsiy faoliyati ko'lami orqali o'qituvchi irodasini namoyish qilib, o'quvchilarni o'qishga qiziqtirishga harakat qiladi. Sinfda o'qituvchi – pedagog, rahbar, tarbiyachi, ixtirochi, tezkor, qat'iyatli, har doim har qanday vaziyatni mustaqil hal qilishga tayyor bo'lgan professional.

O'qituvchining kasbiy zaruriy fazilatlari – bilimdonlik, kreativlik, yangilikka chanqoqlik, chidamlilik va o'zini tuta bilishi, boshqaruvchiligi, o'quvchiga nisbatan mehrga moyil bo'lishi, mayda-chuyda narsalardan asabiylashmasligi. O'qituvchining o'ziga xos kasbiy sifati – bu adolatdir. U o'z faoliyatining mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va harakatlarini tizimli ravishda baholashga majbur. Shuning uchun, uning baholari o'quvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi muhimdir. Ular tomonidan ob'ektivlik baholanadi. Ob'ektiv bo'lish qobiliyati sifatida o'qituvchining axloqiy obro'sini hech narsa kuchaytirmaydi. Tarafkashlik, sub'ektivizm ta'lim uchun o'ta zararli.

Pedagogik texnikaning ajralmas elementi o'qituvchining o'z e'tiborini va o'quvchi e'tiborini boshqarish qobiliyatidir. Misollarni ishlashda hech narsa nazoratdan chetda qolmasligi kerak. O'qituvchi uchun o'quvchining xatti-harakatlarining tashqi belgilariga qarab o'z ruhiy holatini aniqlay bilish muhimdir. Pedagogik harakatlarni tanlashda buni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Har bir daqiqada o'quvchining holatini hisobga olish pedagogik taktikaning asosini tashkil etadi, ishda eng muhim o'rinni egallaydi.



Pedagogik munosabat va muloqot - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatish. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan kasbiy o'zaro aloqasi sifatida ham belgilanishi mumkin. Bu yerda nutq madaniyati, to'g'ri nafas olish va ovozi mashq qilish muhim ro'l o'ynaydi. O'qituvchi o'z ovozi, yuzini, pauzasini, holatini, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni boshqarishni o'rganishi kerak.

Bu o'rinda J. Brofi va T. Gudd o'qituvchilarga taalluqli ayrim ijobiy va salbiy xislatlarni sanab o'tishgan:

- old qatorda o'tirgan o'quvchilarga beixtiyor ko'proq murojaat qilishni istashlik;
- o'z yutuqlarini yuqori ball bilan baholash;
- chiroyli yozuvi bo'lgan o'qituvchilarga ustunlik berish;
- chiroyli kiyinganlar ham ajratish;
- ayol o'qituvchilar o'quvchi yigitlarga yuqori baho berishligi;
- erkak o'qituvchilar chiroyli qiz o'quvchilarning baholarini biroz oshirib yuborishligi.

Ta'lim jarayoni - o'qituvchi ijodiy qobiliyatini namoyish etuvchi sahnadir.

Rivojlantiruvchi talablar: Dars jarayonida o'qituvchi o'z imkoniyatlarini o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishni oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg'otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

O'qituvchi pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda.

Zamonaviy o'qituvchi ta'lim va tarbiyani qanday tashkil etishi zarur:

- pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarni mazmunan yaxlitligini ta'minlashi;
- faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi;
- pedagogik tizimni loyihalay olishi;
- ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;
- rivojlangan mamlakatlarda erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda qo'llashi.
- ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi.
- darsning barcha turlarida, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi.

O'qituvchining - o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo'ladi.

Dars - ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda o'qituvchi tashkiliy tartibni va o'quv ishlarining muntazamligini ta'minlaydi.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;*
- yangi materiallar bilan tanishish darslari;*
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;*
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;*
- ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;*



bilimlarni tekshirish darslari.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi talablardan foydalanib, o'z imkoniyatlariga erishishi lozim:

-ta'limiy;

-tarbiyaviy;

-rivojlantiruvchi.

Ta'limiy talablarga:

Har bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o'rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Tarbiyaviy talablardan:

asosiy maqsad, tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollikni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi talablar:

Dars jarayonida o'qituvchi o'z imkoniyatlarini o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishni oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg'otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

Ijodiy kayfiyat:

o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi, o'quvchilar jamoasiga tez kirishib ketishini ta'minlovchi vositadir.

Ijodiy kayfiyatni boshqarish:

o'qituvchi mehnatining eng muhim kasbiy jihatdan talabi bo'lib, u o'qituvchining sinfda, bolalar bilan muomalada erkin bo'lishini, xulq-atvorining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Rejalashtirish:

O'qituvchi faoliyatida **rejalashtirish** bosqichi kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi:

Darsning samaradorligi uni samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Kommunikativ qobiliyati– bu bolalar bilan muloqatda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Avtoritar qobiliyat – bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatdir.



Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yiligi, irodaviy uddaburonligi o'zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy xislatlarga, shu bilan birga o'quvchi-larning ta'lim tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligini ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liq.

Ta'lim -tarbiyaning qoidalari.

1. O'qituvchining dars o'tish vaqtida asosiysi – bu muomala. Bola — kichkina odamgina emas, alohida shaxs hamdir. Shuning uchun uni izzat qilish, muloqot mobaynida hurmatni izhor etib turish zarur.

O'qituvchi ota yoki ona sifatida shaxsiy namuna bilan o'quvchi bilan muloqot qilishni o'rgatishi zarur. Samimiyatsiz insoniy munosabat o'rnatib bo'lmaydi.

Bolalarni nazorat qilish, ayniqsa, kichik yoshdagilarini cho'chitib qo'yadi. Siz faqat qo'rqitish yordamida "o'zingni yaxshi tut", desangiz u bu nega zarurligini tushunmaydi. Bundan tashqari, katta bo'lganida bola sizdan qo'rqadigan bo'ladi.

2. O'qituvchi bolaga xush ko'rish bilan munosabatda bo'lishi kerak. Bolalar ota-onalari ularni yaxshi ko'rishiga qattiq ishonishadi. Bu tug'ma hissiyot. Hatto bolaga yetarli e'tibor qaratilmagan yoki ularni jazolagan paytda ham ular ota-onasining mehr-muhabbatiga ishonishadi.

Biroq yoqimlilik, xush ko'rish bilan gapirish, mehr ko'rsatish umuman boshqa narsa. Ko'plab bolalar sovuq va loqayd munosabatni darrov payqab qolishadi. Ota-onalik muhabbati tabiiy hissiyot, instinktadir. Unga simpatiyani uyg'unlashtirsangiz, bola tarbiyasidagi katta yutuqni qo'lga kiritasiz.

3. O'qituvchi bolalarga juda ko'p e'tibor qaratishi zarur. Barcha bolalarga e'tibor kerak. E'tibor esa hech qachon ko'plik qilmaydi. Farzandlar ikki nafar bo'lsa, ular barcha e'tiborni o'zlariga qaratish uchun injiqlik qilishadi. Ha, go'daklar e'tiborni qozonish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishadi. Bu holat bolalarda instinktiv mavjud. Ota-onaning ko'z-quloq bo'lib turishi ular uchun xavfsizlikni anglatadi.

4. O'qituvchi o'quvchilarning yaxshisini oshirib, yomonini yashirishi kerak. Mazkur qoida birinchi qarashdayoq tushunarli. Ularning yaxshi harakatlariga e'tibor qaratishi. Agar bola nimanidir noto'g'ri qilayotgan bo'lsa, asta sekin tog'ri yolg'a boshlash. Yaxshi tomonga e'tibor qaratish bola o'zini yaxshi tutishiga sabab bo'ladi.

5. O'qituvchi o'quvchilarga chegara qo'yishi kerak. Bolalarni chegaralanmaslikning sabablari ko'p. Ular olamni mustaqil anglashlari lozimku, axir. Biroq bolalarni yolqovlikdan cheklamasangiz, tarbiyani o'zi bo'larchilikka tashlab qo'ygan bo'lasiz. Ularni chegarasiz, hech qanday qoidalarsiz tarbiyalab bo'lmaydi. Bola biror cheklovga duch kelmagunicha harakatlanaveradi. Sababi nimaningdir mumkin emasligi tushunchasi ularning tabiatida mavjud emas.

6. O'quvchilarning ergashtiruvchi bo'lishga harakat qilinishi kerak. Ota-ona bo'lish og'ir mas'uliyat. Shaxsiy namuna ko'rsatish ham qiyin. Shunday bo'lsa-da fanzandingiz qanday bo'lishini istasangiz, o'zingiz ham shunday bo'lishga majbursiz.

7. O'quvchilarning yomon fe'l-atvorini kechirmaslik. Agar bola ota-onasini haqorat qilsa, ranjitsa, jazavasi tutib qolsa buni kechirish kerak emas. Ha, bola doimo o'zini ideal darajada tutmasligi mumkin. Bolalarda vaqti-vaqti bilan yomon fe'l-atvor kuzatilib turadi. Ammo bu



holatga qo'l siltab qo'yib bo'lmaydi. Aks holda, ahvol bundan ham yomonlashadi. Yomon xulq bilan kurashish zarur.

8. O'qituvchilarning har doim reja asosida ishlash lozim. O'quvchilar serxarxasha va tantiq bo'lsa, avvalo, reja tuzib olinadi. Albatta, bu rejada grafiklar chizishingiz shart emas yoki maqsad va vazifalarni batafsil boshidan oxirigacha ifodalashingiz zarur emas. Har kunlik hisobotlar ham bu o'rindan joy olmaydi. Shunday bo'lsa-da, reja zarur.

U o'qituvchilarning bolaning fe'l-atvori ustida ishlashida asqotadi. Go'dakning bitta muammoli fe'li yoki qilig'ini yozib va u bilan kurashish uchun har xil g'oyalar o'ylab topish zarur.

9. Istalgan xulq – bu muloqot. Eng yomon atvor ham bu bolaning ota-onasi bilan bo'lgan muloqotidir. Agar u qandaydir nojo'ya harakat qilayotgan bo'lsa, go'dak ota-onasiga nimanidir aytgisi kelayapti. Masalan, e'tiborsizlikdan aziyat chekayapti. Ular fikr va hislarini harakatlar yordamida ifodalaydi. Bola o'z tantiliklari bilan nimani tushuntirmoqchi ekanligini bilish bu yarim muvaffaqiyat kalitidir.

10. Bolalar – bu xaos (tartibsiz, chalkash)dir, ular bilan urushish foydasiz. Bolalar ota-onasining hayotiga doimo xaos olib kirgan. Ta'kidlab aytamiz, doimo. Bola tug'ilishi bilan minglab kutilmagan, kechiktirib bo'lmas ishlar paydo bo'ladi. Buni tushunish va mazkur holatga ko'nikish zarur. Farzandingiz oldin xafa bo'lishi, keyin sho'xlik qilishi, saldan so'ng esa siz bilan tortishishi, bahslashishi mumkin. Barchasiga sabr eting. Dovuldan keyin baribir quyosh chiqadi.

References:

1. Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida.
2. Muslim Ataev, Fatvo bo'limi xodimi O'MI Matbuot xizmati.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997.
4. A.X.Aripova, TDYuU Ixtisoslashtirilgan filiali Umumta'lim fanlar kafedrasini mudiri v.b., f.f.n., PhD;
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "O'zbekiston", 2009.
6. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – To'ldirilgan 2–nashri. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000.
7. Pedagogika. (Pod red. P.I. Pidkasiyostogo).- M.:Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003.
8. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 380 b.
9. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: "Fan", 2009.
10. O'qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish mezonini (Metodik tavsiyanoma). – T.: 1993.
11. G'aybullaev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: O'zMU, 2005.
12. G'oziev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. T.: – "O'qituvchi", 1984.